

OILA VA NIKOH MUNOSABATLARINI O'RGANISHDA DOLZARB TENDENSIYALAR

O`ktamova Viloyat Hamid qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11318401>

Annotatsiya. Maqolada keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar va oilani qo'llabquvvatlash sohasida olib borilayotgan ulkan islohotlar hamda oilaviy zo'ravonlikning kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etishning innovatsion mexanizmlari ochib berilgan. Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligining yanada oshib borishi ananaviy jamiyatdan zamonaviy (modern)lashgan jamiyatga o'tish jarayoni davomida yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Zero, jamiyatning zamonaviylashuvi jarayoni dastlab rivojlangan g'arb davlatlari ijtimoiy qiyofasini o'zgartirgan bo'lsa, keyinchalik butun dunyoda yangilanishlar zanjirini hosil qildi. Bu jarayon bir-biri bilan uzviy bog'liqlikdagi siyosiy, iqtisodiy, intellektual transformasiyalar mahsuli sifatida jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarini qamrab oldi. Individning shaxsiy va kasbiy hayotida kechayotgan gender munosabatlar bundan mustano qolmadi.

Kalit so'zlar: islohot, oila, xotin-qizlar, oilaviy zo'ravonlik, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, ijtimoiy, munosabat.

CURRENT TRENDS IN THE STUDY OF FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS

Abstract. The article reveals the major reforms in the field of women and family support in the Republic of Uzbekistan in recent years, as well as the causes of family violence and innovative mechanisms for its elimination. Increasing social and political activity of women has become more relevant during the process of transition from traditional society to modernized society. After all, the process of modernization of society initially changed the social image of the developed western countries, and then it created a chain of updates throughout the world.

This process, as a product of interrelated political, economic and intellectual transformations, covered all aspects of the society's social life. Gender relations in the individual's personal and professional life are no exception.

Key words: reform, family, women, family violence, natural, economic, legal, spiritual, social, attitude.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ИССЛЕДОВАНИИ СЕМЕЙНО-БРАЧНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация. В статье раскрыты основные реформы в сфере поддержки женщин и семьи в Республике Узбекистан за последние годы, а также причины семейного насилия и инновационные механизмы его устранения. Повышение социальной и политической

активности женщин стало более актуальным в процессе перехода от традиционного общества к модернизированному. Ведь процесс модернизации общества изначально изменил социальный облик развитых стран Запада, а затем создал цепочку обновлений по всему миру. Этот процесс, как продукт взаимосвязанных политических, экономических и интеллектуальных преобразований, охватил все стороны социальной жизни общества. Гендерные отношения в личной и профессиональной жизни человека не являются исключением.

Ключевые слова: реформа, семья, женщины, насилие в семье, естественное, экономическое, правовое, духовное, социальное, отношение.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 4.2. “Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish” bandida belgilab berilgan ustuvor vazifalar, xususan, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, gender tengligini ta‘minlash¹, davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish, og‘ir ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga moddiy, psixologik, tibbiy yordam ko‘rsatish, ularni uy-joy va ish bilan ta‘minlash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oilada ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash¹ borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida xotin-qizlarni ijtimoiy-himoya qilish masalasi yangi bosqichga ko‘tarildi.

Yangi O‘zbekistonni yaratish yo‘lida keng ko‘lamli innovatsion faoliyat va bunyodkorlik, yaratuvchanlik harakatining asoschisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Biz bu yil xotin-qizlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘taramiz”². Zero, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Davlat organlari, fuqarolik jamiyati vakillari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta‘minlash maqsadida Respublika xotin-qizlar jamoatchilik Kengashi o‘z ishini boshladi.

Kengash tarkibiga hayotiy tajribaga ega yurtdoshlarimiz, deputat va senator ayollar, olim va professorlar hamda jamoatchilik vakillari kiritildi. Kengash xotin-qizlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularga kerakli bilim va ko‘nikmalarni o‘qitish, shuningdek, o‘z biznesini boshlashlari uchun zarur mablag‘ bilan ta‘minlash orqali aholi, ayniqsa, ayollar va qizlarning

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – Тошкент, “Адолат”, 2018. Б.22-23

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисиغا Мурожаатномаси. / <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

turmush darajasi yaxshilanishiga erishish maqsadida tashkil qilindi. Keyingi yillarda mamlakatimizda ayollar huquqlarini himoya qilish va ularning imkoniyatlarini kengaytirish sohasida 20 ga yaqin huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi, 2030-yilgacha bo'lgan davrda gender tengligiga erishish strategiyasi ishlab chiqilgani, unga muvofiq barcha yangi qonun loyihalarini gender nuqtayi nazaridan tahlil qilish bo'yicha maxsus protseduralar kiritildi. O'zbekistonda davlat boshqaruvidagi ayollar soni, ularning jamoat ishlarida ishtirok etishi va qarorlar qabul qilish darajasi oshib bormoqda.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan jinslararo tafovut doirasidagi stratifikasion tasnif asosida xotin-qizlar sosiomadaniy qiyofasidagi o'zgarishlar tahlil etilib, quyidagi xulosaga kelindi: - jismoniy-irsiy stratifikasiya tizimi ijtimoiy guruhlarning «tabiiy» ijtimoiy-demografik belgilariga tayanadi. Bunda «boshqalarga nisbatan zaif va jismoniy nuqsonlarga ega kishilar past ijtimoiy mavqeyi egallaydi». Tabiiy-biologik asosga ega ushbu tizimda jismonan zaifroq sanaluvchi xotin-qizlar o'z-o'zidan erkaklarga nisbatan quyi pog'onani egallaydi; - ijtimoiy-professional stratifikasiya tizimida esa mehnat mazmuni va shart-sharoitlariga ko'ra jamiyat turli kasblarning stereotiplashgan «erkaklarga xos» yoki «xotin-qizlarga xos»ligi taqsimoti bilan izohlanadi.

Odatda, «xotin-qizlarga xos» kasblarning aksariyati erkaklarning nisbatan bepisandroq munosabatiga sabab bo'ladi.

Ilmiy tadqiq etilayotgan masala mazmunan bu ikkila turdagi funktsiya doirasida bo'lib, jamiyatdagi jinsli-rolli tafovutlar qoliplariga mutanosib hulq-atvor modellari doirasida aksariyat ayollar kasbiy maqomning nufuzli shakllari uchun kurashdan chetlatilgan va ayol o'zi mansub sinfiy qatlam erkaklari bilan nufuzli maqom uchun ochiq raqobatda zaif muxolifat sanaladi.

Ayollar masalalari bilan atroflicha shug'ullangan G. Sillastening fikriga ko'ra, ijtimoiy mobillik keng ma'noda – ayollarning jamiyat ijtimoiy tuzilmasidagi mavqeyini o'zgarishi va o'zgaruvchan hayotiy faoliyat sharoitlariga moslashuvini anglatadi. Tor ma'noda – ijtimoiy mobillik ayolning o'z lavozimiy va kasbiy maqomini o'zgaritirish va nihoyat yangi ijtimoiy va iqtisodiy muhitga moslashishdagi individual imkoniyatlarini angladi. G.Sillaste ayrim g'arb mualliflarining jamiyatdagi transformasion jarayonlarda jinsning psixobiologik va fiziologik xususiyatlari erkak va ayol xulq-atvori modellarini shakllantiruvchi bosh omil ekanligi haqidagi fikrlariga zid ravishda ijtimoiy omillarni ko'rsatadi. Albatta jinsiy taqsimotni sinfiy differensiasiyaning davomi sifatida qabul qilish o'ta qo'pol soddalik, ushbu yirik tushunchaning turli bo'laklarini «yutib» yuborish bo'lar edi.

Ayollar emansipasiyasining salbiy jihatlari uning ijobiy jihatlari bilan parallel holda kechadi. Emansipasiya oilaviy-nikoh munosabatlari zalvorini kamaytirishi, tanlov erkinligini ta'minlashi natijasida xotin-qizlarning rasmiy nikoh tuzish ishtiyoqi tushib ketdi. Natijada, oila

institutining ijtimoiy qadriyati yo'qotildi. Norasmiy munosabatlarni afzal bilgan g'arb ayollari oldida farzand dunyoga kelgach uni yolg'iz tarbiyalab voyaga yetkazish masalasi ko'dalang turib qoldi. Emansipasiyalashgan ayol erkak kishining ko'magidan bebaxra qolib boshladi. Zero, mustaqil, uddaburon, aqli, erkin ayol an'anaviy munosabatlardan ko'chib, yolg'iz yashashni afzal biladi. Ammo, farzandlar tarbiyasi, maishiy muammolar, turli hayotiy vaziyatlarda erkak kishining ko'magiga ehtiyoj sezadi. Shuningdek, ayrim vaziyatlarda keragidan ortiq erkin bo'lgan xotin-qizlar bilan munosabatdan ongli tarzda qochish kuzatiladi.

Jadidchilik harakatining ulug' namoyondasi Fitrat o'zining "Oila" asarida: "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi", – deb yozadi³. Bu jarayonda davlat har bir oilaning ijtimoiy himoyalaniishi, moddiy jihatdan ta'minlanishi, tinch va farovon hayot kechirishi uchun yetarli sharoitlarga ega bo'lishidan manfaatdor bo'lib, ularning farovonligi kafolatlanishiga ko'maklashayotgani muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mamlakatimizning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan jadal taraqqiyotini ifodalagan "Harakatlar strategiya"ga binoan, mazkur yo'nalishdagi amaliy ishlar keng qamrovli tus olib, bu jarayon yanada jadal sur'atda davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" deb qayd etilgan. Konstitutsiyaning mazkur normasi asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi"ning 2-moddasi talabiga ko'ra, "oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqli bo'lib, oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustunligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi". Dunyo miqyosida global muammolardan biri bo'lib kelayotgan oilaviy zo'ravonlik masalasiga xalqaro hamjamiyatlar tomonidan berilayotgan yuksak e'tiborga qaramasdan, oilalarda bunday salbiy holatlarning kamaymayotgani mazkur holatning alohida tadqiq etiladigan dolzarb mauammolar sirasida qolib kelayotganligi va uni ilmiy tadqiq etishni faollashtirish zaruratini belgilaydi.

³ Абдурауф Фитрат. Оила. – Тошкент: Маънавият, 1998. Б.8

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi va Prezident “Xotin-qizlarni kullab-quvvatlash va oila” institutini iqtisodiy faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5325-sonli Farmoni. <http://lex.uz/docs/3546742>
3. O‘zbekiston Respublikasi va Prezident qarori “Ijtimoy kilish va obodonlashtirish” moslashtirish, olish, jixatdan-maishiy zurlik islatishning tekshirish takomilashtirish chora-tadbillari twg‘risida”gi PQ-3827-sonli Karori. <http://lex.uz/docs/3804821>
7. Antonov A.I. Sotsiologiya semi. Uchebnik. – Moskva: INFRA-M, 2012.
8. Antonov A.I. Mikrosotsiologiya semi. –Moskva, 2013.
9. Chernyak Ye. M. Sosiologiya semi: Uchebnoye posobiye. – Moskva: Izdatelsko-torgovaya korporasiya «Dashkov i K», 2004. - 238 s